BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI OG‘IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING SABABLARINI O‘RGANISHDA INTEGRATSION USULLAR

Achilova Sevara Djasirkulovna
dotsent, p.f.f.d (PhD) Maxsus pedagogika kafedrasi ChDPU

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak logopedlarni og‘ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonidagi muammolar va ularning sabablarini o‘rganishda integratsion usullar yoritilgan. Maqolada og‘ir nutq nuqsonlarni o‘rganish, nutq nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha integratsion va innovatsion usullar qo‘llashning muhimligi ko‘rsatilib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Defetologiya, dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, korreksiya, intregratsiya, innovatsiya, individul yondashuv, gadjet.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы и причины внедрения интегративных методов в процесс подготовки будущих логопедов к работе с детьми с тяжелыми нарушениями речи. В статье показана важность использования интегративных и инновационных методов при изучении тяжелых нарушений речи и их устранении.
Ключевые слова: Дефетология, дизартрия, ринолалия, заикание, коррекция, интеграция, инновации, индивидуальный подход, гаджет.

Abstract: This article examines the challenges and reasons for implementing integrative methods in the training of future speech therapists to work with children with severe speech impairments. The article demonstrates the importance of using integrative and innovative methods in studying and treating severe speech impairments.
Key words: Defectology, dysarthria, rhinolalia, stuttering, correction, integration, innovation, individual approach, gadget.

Ta’limda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar bugungi kunda yoshlarni bilim egallashga, biror-bir kasbni chuqur o‘zlashtirishga katta ko‘mak berib kelmoqda. Fan va texnologiyalarning tez suratlar bilan rivojlanishi, hamda turli gadjetlarning ixtirolari yordamida ta’limda iinovatsion usullarni qo‘llashga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’limda tahsil olayotgan yoshlar kasbni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan so‘nggi yangiliklarni bilish, ularni to‘g‘ri tahlil qilish zamon talabidir. Shu bosidan ham, bo‘lajak logopedlarni og‘ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonidagi muammolar va ularning sabablarini o‘rganishda integratsion usullar qo‘llash zarur bo‘lib kelmoqda. Amaliyotni nazariya bilan bog‘lash va solishtirish usullari og‘ir nutq nuqsonlarni o‘rganish, aniqlash, bartaraf etish kabi ish usullarni tahlil etish defektologiyani asosiy maqsadidir. Og‘ir nutq nuqsonga ega bo‘lgan bolalarda kuzatiladigan nutq nuqsonlarni bolalarni o‘zbek tilini o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilishiga sabab bo‘ladi. Innovatsion usullarni maxsus pedagoglar tomonidan qo‘llash esa, bunday bolalarda tashkil etildagan korreksion – pedagogik ishlar samarasini oshiradi.

Og‘ir nutq nuqsonlarni ochib o‘rganadigan bo‘lsak, bulardan eng murakkablari bu – dizartriya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni va rinolaliya nutq nuqsonlari sanaladi.

Rinolaliya nutq nuqsoni – bu bolalarda anatomik-fiziologik kamchiliklar tufayli nutqning tembr-ritmi buzilishi hisoblanadi.

Duduqlanish nutq nuqsoni – qadimgi nutq nuqsonlardan biri bo‘lib, eng ko‘p o‘rganilgan nutq nuqsonlardan biri sanaladi. Duduqlanshi nutq nuqsoni so‘z, so‘z bo‘g‘inlari yoki ayrim tovushlarni takrorlash natijasida nutqning buzilishi va to‘xtab-to‘xtab gapirilishidir. Tibbiyot mutaxassislar tomonidan logonevroz deb ataladi.

Dizartriya nutq nuqsoni – ushbu nutq nuqsoni bolalar serebral falajida ko‘p kuzatiladi. Dizartriyada talaffuzning buzilishi nutq apparatining innervatsiyasining yetarli emasligidan kelib chiqqan nutq kamchiligidir.

Ushbu og‘ir nutq nuqsonlari respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarda va maktab yoshidagi bolalarda kuzatiladi. Og‘ir nutq nuqsonlarni bartaraf etish innovatsion hamda integratsion ish usullarni to‘g‘ri qo‘llash bo‘lajak logopedlarga o‘quv jarayonda pedagoglar tomonidan tushuntirib boriladi. Nutq nuqsonlarni kelib chiqish sabablarini o‘rganishda integratsion usullar katta yordam beradi. Bilamizki, intregratsiya jarayoni ta’limda qo‘llash yaxshi samara beradi. Yangi ma’lumotlarni o‘rganish, ularni yangi usullar bilan to‘ldirish og‘ir nutq nuqsonlarni tahlil qilishda katta yordam beradi.

Maxsus pedagogikada og‘ir nutq nuqsonlarni o‘rganishda o‘quv jarayonida olib boriladigan o‘qitiladigan fanlarning ma’ruza soatlari, amaliy mashg‘ulot darslarini olib borilishi rinolaliya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni va duduqlanish nutq nuqsonini chuqur o‘rganishga yordam beradi. O‘quv rejada kiritilgan fanlar birinchi kursdan mutaxassislikka kirish fanidan boshlab tanishtirib boriladi. Bo‘lajak logopedlar har bir og‘ir nutq nuqsonlarni kelib chiqish sabablarini, ularga ta’sir etuvchi omillar, og‘ir nutq nuqsonlarni turlari o‘rganishga yordam berishda maxsus fanlarning o‘qitilishi sabab bo‘ladi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarga logopedik yordam ko‘rsatishning hududiy tizimini rivojlantirishning istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqlol vazifalari esa bugungi kunda maxsus va inklyuziv ta’lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu o‘z navbatida, korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim- tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog‘lash zaruratini keltirib chiqaradi. Maxsus pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun, bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va pedagogik tarbiya bilan uzviy bog‘lashning yangi usul va yo‘llarini izlab topish, bu yo‘lda ilmiy-nazariy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Respublika sharoitida logopedik yordam ko‘rsatishni takomillashtirishni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish qator omillar bilan shartlanadi. Nutqiy nuqsonlar maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar psixojismoniy rivojlanishining nisbatan keng tarqalgan muammolaridan biri bo‘lib qolayotganini e’tiborga olib, bu maktabgacha va maktab yoshidagi aholining katta qismini qamrab olishni talab etadi. Og‘ir nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarga logopedik yordam ko‘rsatishga doir ishlar turli idoraviy bo‘ysinuvdagi muassasalar tomonidan amalga oshirilishiga qaramay, ularning xatti-harakatlari aksariyat holatlarda o‘zaro mos kelmaydi. Bu logopedik yordamni yagona korreksion-rivojlantiruvchi muhit yo‘nalishida takomillashtirish zaruriyatini tug‘diradi.

Hozirgi kunda uchinchi Renessans davrida o‘sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama rivojlantirish masalasini hal etishda jahonning ilg‘or g‘oyalari hamda milliy qadriyatlarga asoslangan islohotlar tizimli olib borilmoqda. Xususan, ona tilini samarali o‘rgatish, yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirish, davlat tilida muvaffaqiyatli ish yuritish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda maktabgacha va maktab ta’limini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘sib kelayotgan yoshlar orasida turli nutq kamchiligiga ega bolalar ham mavjud bo‘lib, ular tomonidan o‘quv fanlarining samarali egallanishiga

erishishda hamda ularni mustaqil hayotga tayyorlashda korreksion ishlarni erta va metodik jihatdan to‘g‘ri olib borish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini tashxislash, ularni bartaraf etishda logopedik xizmatni tashkil etish bo‘yicha xorijiy va milliy maxsus pedagogikada ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar mazmunida nutq kamchiliklari orasida dizartriya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni og‘ir nuqson sifatida qayd etiladi. Chunki ushbu nutq nuqsonlari oqibatida bolalarda tovushlar talaffuzi buziladi. Tovushlarni noaniq talaffuz qilish esa nutqning tushunarsizligini keltirib chiqaradi. Bu holat bolalarda turli psixologik noqulayliklarni yuzaga chiqaradi. Natijada bolalar nafaqat atrofdagilar bilan muloqotda cheklangan tarzda, balki atrof, olamni anglash, o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirish jarayonida ham passivlikni namoyon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida bo‘lgani kabi, ta’lim tizimida ham logopedik yordamni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda: oig‘r nutq nuqsoniga ega bo‘lgan shaxslarni aniqlash, nutq nuqsonlarini oldini olish va korreksion-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning ma’lum tizimi shakllandi.

Bo‘lajak logopedlar nazariy olgan bilimlarni amaliyotda ko‘rish va o‘rganish zarurligi muhimdir. Chunki, bilamizki og‘ir nutq nuqsonlarni nazariy jihatdan o‘rganish yetarli emas. Shu sababli ham, maxsus muassasalarga bo‘lajak logopedlarni olib borish, korreksion-logopedik ishni amaliyotda tanishtirish orqali og‘ir nutq nuqsonlarni to‘liq tushunishga katta yordam beradi.

Bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlar bilan tarixda kim ishlagan qanday tadqiqot izlanishlar olib borilganligi bilan dars jarayonida tanishib chiqadilar. Masalan, og‘ir nutq nuqsonlardan biri dizartriya nutq nuqsoni tarixda 1969-yilda dizartriya nutq nuqsonining yengil darajasi bilan ishlashning ilk tavsiyalari O.A.Tokareva tomonidan taklif etilgan. Yengil darajadagi dizartriya nutq nuqsonida tovushlarni almashtirish, tovushlarning buzilishi, diksiyaning yomonligi, nutq ifodaliligining yaxshi rivojlanmaganligi asosiy simptomlar hisoblanadi.

Maxsus pedagogik adabiyotlarda tilga olinadigan fonetiko-fonematik nuqsonlarni o‘rganish bo‘yicha yondashuvlar metodologiyasini aniqlashda «tovushlarni talaffuz etishdagi nuqson» atamasi muhim o‘rin tutadi, shuning uchun, avvalo, «til» va «nutq» tushunchalari o‘rtasidagi farqlanishni e’tiborga olish lozim bo‘ladi.

“Nutq funksional tizimining fonetik va fonologik birliklari to‘g‘risidagi hamda integrativ faoliyatda bo‘lgani kabi, nutqiy ifodaning asosida murakkab differensial iyerarxik birlashgan dinamik, markazlararo munosabatlar yotadi, nutq va undagi nuqson strukturasi, shuningdek, korreksion-logopedik ta’sir jarayonini tizimli tashkil etish tamoyili to‘g‘risidagi o‘ziga xos mexanizmlar, zamonaviy tasavvurlar amaliyotda tez-tez ishlatiladi.”

Rinolaliya nutq nuqsoni bo‘yicha Veretennikova I.T, M.D.Dubov, L.Y.Frolovalarning ma’lumotlariga ko‘ra, inson deformatsiyasining 13% dan 36% gacha tashkil etadi. Yuqori lab va tanglayning tug‘ma kamchiligi bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatini hamda ularni korreksiyalash usullarini o‘rganuvchi mutaxassislar jag‘-yuz sohasidagi patologiya bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan hamda nutqning talaffuz tomoni shakllanishi va rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan bir qator anatomik va funksional buzilishlarni qayd etadilar. Jumladan, S.I.Bloxina, M.D.Dubov, A.E.Gusan, G.V.Gonchakov, N.N.Kasparova, M.Kara, Ad.A.Mamedov, Sh.E.Toxtiyarova, O.C.Thiele, P.Corthoutslarning ishlarida tanglayda o‘tkaziladigan jarrohlik amaliyotining optimal muddatlarini aniqlash, boladagi (re)abilitatsion potensialni belgilab olish masalalari ilmiy asoslandi va eksperimental jihatdan isbotlab berildi.

Shunday qilib, rinolaliya nutq nuqsonini bartaraf qilish bo‘yicha metodik usullari ishlab chiqish masalasi bilan A.S.Balakireva, T.Y.Derunova, G.Gutsman, A.G.Ippollitova, Z.G.Nelyubova, N.V.Obuxova, Y.S.Rogojina, Ye.F.Rau, N.I.Serebrova, S.L.Taptapova, M.Ye.Xvatsev, I.I.Yermakova, L.I.Vansovskaya, T.I.Voronsova, T.V.Volosovets, G.V.Chirkinalar shug‘ullanganlar.

Duduqlanshi nutq nuqsonlari ushbu toifadagi bolalarda muloqot jarayonining buzilishiga, bu esa, o‘z navbatida, kommunikativ kompetensiyaning yetarlicha rivojlanganligiga olib keladi, degan xulosaga kelindi. R.Ye.Levina duduqlanish nutq nuqsoni bo‘lgan bolaning batafsil mustaqil nutqiga o‘tish davrida tafakkur funksiyalari shikastlanmagan holda uning kommunikativ funksiyasini shakllantirishdagi qiyinchiliklarni aks ettiradi, deb e’tirof etgan. Duduqlanish nutq nuqsonida nutqning kommunikativ funksiyasi buzilishi nutq dizontogenezi (G.A.Volkova) va nutqiy muloqot paytida paydo bo‘ladigan konvulsiv tutilib qolish (V.A.Kalyagin, Y.B.Nekrasov, E.Y.Rau) bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu nutq nuqsoni ko‘rinishlarida kommunikativ vaziyatlar (Y.B.Nekrasova, V.I.Seliverstov) va noverbal muloqot jarayonidagi qiyinchiliklar (N.N.Stanishevskaya) kuzatilishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Волкова П.С., Шаховская С.Н., Логопедия. Издателство Владос. М., 2002
2. Achilova S.J. “Dislaliya.Dizartriya” /O’quv qo’llanma. «ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2021.
3. Морозова Н.Й. Как преодолет заикание. Изд-во ЭКСМО М., 2002
4. Achilova S.J. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida og‘ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda logopedik shoxobchaning o‘rni. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiyemotsional ta’lim metodikalarini joriy etish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami 2025-yil 16-sentabr.481-483 bet.
5. Achilova S.J. Factors And Principles Of Preparing Future Speech Therapists To Work With Children With Severe Speech Impairments. 6th INTERNATIONAL BLACK SEA SCIENTIFIC RESEARCH AND INNOVATION CONGRESS. 386-390 bet.2025.
6. Achilova Sevara Djasirkulovna MECHANISMS OF CREATING A PROFESSIONAL INFORMATION ENVIRONMENT IN PREPARING FUTURE LOGICAL THERAPISTS TO WORK WITH CHILDREN WITH SEVERE SPEECH DISORDERS. Modern American Journal of Social Sciences and Humanities ISSN (E): 3067-8153 Volume 01, Issue 07, October, 2025.